

“Xarbiy vatanparvarlik” oyligi munosabati bilan Viloyatda o‘tkazilgan Xarbiy paradda Institut talablari ham faol ishtirok etdilar

Viloyatimizda 15-dekabrda 2019-yilning 15-yanvariga qadar “Kim yurtiga sodiq bo‘lsa, mendirman o‘sha” shiori ostida “Xarbiy vatanparvarlik oyligi” deb e‘lon qilingan edi, shu munosabati bilan 2019-yilning 13-yanvar kuni Andijon shahrida xarbiy parad o‘tkazildi. Unda, viloyatimizdagi barcha xarbiy qismlar, Ichki ishlar boshqarmalari, Sog‘liqni saqlash boshqarmasi, korxonalar va tashkilot xodimlari va barcha ta‘lim muassasalari talaba-o‘quvchilari ishtirok etdilar.

Ular qatorida Andijon mashinasozlik institutining ko‘p sonli talabalari ham saf tortib, Ona Vatanga bo‘lgan cheksiz sadoqatlarini shaxdam qadamlar bilan izhor etdilar. O‘tkazilgan tadbirda institutning professor-o‘qituvchilari va ishchi xodimlari o‘z oilalari, farzand va nabiralari bilan tomoshabin sifatida ishtirok etdilar. Mana shunday vatanparvarlik ruhidagi tadbirlarni tashkil etish bilan o‘z o‘ziga kelayotgan yosh avlodni yurtga bo‘lgan muhabbatlari oshirishga xizmat qiladi. Yuqori saviyada tashkil etilgan tadbir barchaning xotirasida o‘chmas iz qoldirgan bo‘lsa ajab emas.





Institut matbuot va axborot xizmati xodimi